



## Yetkazib berish bo'yicha hamkorni faolsizlantirish siyosati

Grubhub platformasining Yetkazib berish bo'yicha hamkorlari mijozlarni sevimli sotuvchilari bilan bog'lashda muhim ahamiyatga ega va biz sizni xavfsiz va samarali yetkazib berish uchun vositalar, bilim va resurslar bilan qo'llab-quvvatlashni maqsad qilganmiz.

Grubhub kompaniyasidagi maqsadimiz platformamizdan foydalanadigan har bir kishining xavfsiz va yoqimli tajribaga ega bo'lishini ta'minlashdir. Bunga erishish uchun Grubhub kompaniyasi platformamizga kirishga ruxsatni olishdan oldin barcha foydalanuvchilarga Grubhub platformasidan foydalanish talablari va shartlarini taqdim etadi. Yetkazib berish bo'yicha hamkorlar Grubhub bilan faol yetkazib berishni davom ettirish uchun qanday harakatlar yoki xatti-harakatlardan qochish kerakligini bilishlari uchun ko'rsatmalar beramiz deb umid qilamiz.

Yetkazib berish bo'yicha hamkorlar sizning tegishli Yetkazib berish bo'yicha hamkorlik shartnomasida ko'rsatilgan shartlar va qoidalarga amal qilishlari shart. Bundan tashqari quyida Grubhub hisob qaydnomangiz o'chirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlar yoki xatti-harakatlarning to'liq bo'limgan ro'yxati keltirilgan:

1. Mijoz sotuvchisi yoki uchinchi tomon xavfsizligiga ta'sir qiluvchi yoki iqtisodiy zarar keltiruvchi va Grubhub platformasi bilan bog'liq harakatlar yoki xatti-harakatlar, jumladan:
  - Mijoz, sotuvchi, uchinchi shaxs, Grubhub agenti yoki xodimining jismoniy xavfsizligiga xavf soladigan har qanday harakat yoki xatti-harakatlar. Masalan, agar Yetkazib berish bo'yicha hamkor mijozga yoki sotuvchi hamkoriga jismoniy hujum qilsa, bu qo'pol qoidabuzarlik bo'lib, darhol faolsizlantirishga olib kelishi mumkin.
  - Mijoz, sotuvchi, uchinchi shaxs yoki Grubhub kompaniyasiga iqtisodiy (pul) zarar keltiradigan har qanday harakat yoki xatti-harakatlar. Masalan, yetkazib berish vaqtini yoki masofasini qasddan noto'g'ri ko'paytirish, buyurtma yoki boshqa buyumlarni o'g'irlash yoki buzish yoki mulkka zarar yetkazish kabi har qanday moliyaviy firibgarlik harakati darhol faolsizlantirishga olib kelishi mumkin bo'lgan qo'pol qoidabuzarlikdir.
  - Mijoz, sotuvchi, uchinchi tomon yoki Grubhub kompaniyasiga tahdid soladigan, haqorat qiluvchi yoki buzg'unchi bo'lgan har qanday harakat yoki xatti-harakatlar. Masalan, birovning xavfsizligiga har qanday og'zaki tahdid, bu darhol faolsizlantirishga olib kelishi mumkin bo'lgan qo'pol qoidabuzarlik.



2. Agar spirtli ichimliklar yetkazib berayotgan bo'lsangiz, [Grubhub alkogolli ichimliklar yetkazib berish siyosatiga](#) rioya qilmaslik, jumladan, oluvchining yoshini tasdiqlamasdan yoki mastlik holatini tekshirmasdan oluvchiga spirtli ichimliklarni yetkazib berish.
3. Yetkazib berish bo'yicha hamkorning ma'lumotlarni soxtalashtirishi, boshqa birov shaxsini o'ylab topishi, dublikat hisob yaratish, hisobingizni boshqa birov bilan ruxsatsiz ulashish, shaxsiy ma'lumotlarni tasdiqlamaslik yoki o'zlariga tegishli bo'lmagan shaxsiy ma'lumotlar yoki hujjatlarni taqdim etish kabi firibgarlik.
4. Yetkazib berish bo'yicha barcha hamkorlar avtotransport yozuvlari va jinoyat tarixini baholashni o'z ichiga olgan muntazam biografik ma'lumotlarning tekshirilishiga rozi bo'lishlari kerak. Aniq huquqqa egalik mezonlari yetkazib berish joyiga va siz tanlagan transport usuliga bog'liq bo'lishi mumkin. Har qanday amaldagi shtat va mahalliy qonunlarga qo'shimcha ravishda biografik ma'lumotlar tekshiruvlari asosida faolsizlantirishning ayrim sabablari quyidagilardir:
  - Yaqinda sodir etilgan og'ir jinoyatlar
  - Yaqinda sodir etilgan jiddiy jinoyatlar, jumladan, jinsiy zo'ravonlik, bolalarga qarshi jinsiy jinoyatlar, qotillik, terrorizm, odam savdosi va odam o'g'irlash
  - Hali ko'rib chiqilishini kutib turgan har qanday jiddiy jinoiy ayblovlari
  - So'nggi 2 yil ichidagi ko'p sondagi yo'l harakati qoidalarning buzilishlari yoki avariyalari
  - Yaqinda sodir etilgan har qanday avtomobil haydash qoidalaring buzilishi, masalan, mast holda avtomobil haydash, qo'pol tarzda avtomobil haydash va avariya yuz bergen joydan qochib ketish
5. Hisobdan foydalanish qoidalaring buzilishi. "Hisobdan foydalanish qoidalaring buzilishi" - bu sotuvchilar, restoranlarga tashrif buyuruvchilar va Grubhub kompaniyasiga salbiy ta'sir qiluvchi xatti-harakatlar modeli. Hisobdan foydalanish qoidalaring buzilish yuz bergen hollarda Grubhub for Drivers ilovasi va elektron pochta orqali bildirishnomalar olasiz. Siz ilova orqali qoidabuzarlikni ko'rib chiqish va tan olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. 90 kundan keyin qoidabuzarliklar muddati tugaydi va hisobingizdan olib tashlanadi. Agar 90 kun ichida 3 ta qoidabuzarlik sodir bo'lsa, hisobingiz faolsizlantiriladi va siz ilovaga kira olmaysiz. Quyida hisobdan foydalanish qoidalaring buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlarning to'liq bo'lmagan ro'yxati keltirilgan:
  - **Tayinlanmagan buyurtmalar** - Buyurtmalarni qabul qilish va yetkazib berishni yakunlashdan bosh tortish, bu sotuvchi va mijoz uchun kechikish yoki bekor qilingan tajribaga olib keladi
  - **Sotuvchilarni ular yopilmagan hollarda yopilgan sifatida belgilash** - Sotuvchi ochiq va buyurtmalarni qabul qila olishiga qaramay, ilova ichida sotuvchi haqida xabar berish



yopiq

- **Buyurtmalarni yetkazib bermaslik/buyurtmani olgandan keyin uni noto'g'ri manzilga yetkazib berish** - Buyurtmalarni noto'g'ri joyga qo'yib yuborish yoki buyurtmalarni/buyumlarni o'g'irlash orqali buyurtmalarni bajarmaslik
- **O'zingiz qabul qilgan buyurtmalarni olish yeki yetkazib berishni kechiktirish** - Buyurtmani qabul qilgandan keyin yoki sotuvchining oldidan ketgandan keyin sotuvchi/mijoz oldiga bormaslik
- **Ortiqcha to'lov olingan buyurtmalar** - Grubhub Driver Card orqali mijoz buyurtma qilganidan ko'proq mahsulot yoki xizmatlarni sotib olish
- **Joyni niqoblash/qalbakilashtirish** - Ilovada mavjud bo'lganda haqiqiy joylashuvningizni yashirish yoki noto'g'ri ko'rsatish
- **Yetkazib berishning borishini qalbakilashtirish** - Sotuvchi oldiga yetib kelish va buyurtmani olib ketish va yetkazib berish bo'yicha noto'g'ri ma'lumot berish
- **Noto'g'ri fotosuratlar** - Noto'g'ri ma'lumot berishga urinish maqsadida noto'g'ri mavzu yoki sifatga ega bo'lgan fotosuratlarni yuklash yoki taqdim etish
- **Buyurtmalarni sababsiz bekor qilish** - Yolg'ondan bekor qilish orqali bekor qilish pulini ishlab olish maqsadida buyurtmalarni noto'g'ri bekor qilish
- **Shaxsni tasdiqlovchi hujjatni skanerlashdan qochish** - Skanerlashni talab qiladigan yetkazib berishni amalga oshirayotganda mijozdan shaxsni tasdiqlovchi hujjatni skanerdan o'tkazishga doimo urinmaslik
- **Barcha buyumlarni mavjud emas sifatida belgilash** - Buyurtmani bekor qilish va yetkazib berish to'lovini olish uchun barcha xaridlarni ataylab mavjud emas deb belgilash
- **To'lovdan keyin xaridni bekor qilish** - To'lovni amalga oshirgandan so'ng tovarlarni qaytarib bermasdan va pulni qaytarib bermasdan xarid qilish buyurtmalarini bekor qilish
- **Spiritli ichimlikni qaytarib bermaslik** - Agar buyurtma mijozga yetkazib berilmasa, spiritli ichimliklarni sotuvchiga qaytarmaslik
- **Yetkazib berish PIN kodini kiritishdan qochish** - So'ralganda, berish PIN kodi ishlatalmaydi.
- Xo'randa, sotuvchilar, boshqa uchinchi tomonlar yoki Grubhub kompaniyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan yoki tahdid soladigan har qanday shunga o'xshash xatti-harakatlar.

Ushbu yuqorida keltirilgan axborot faolsizlantirishning umumiy sabablarini sanab o'tadi, biroq yetkazib berish bo'yicha hamkor Grubhub bilan tuzilgan shartnomalarini yoki amaldagi shart yoki siyosatlarni, jumladan, Grubhub yetkazib berish hamkor Foydalanish shartlarini buzsa, ular Grubhub platformasiga kirish huquqini yo'qotishi mumkin. Grubhub har qanday faolsizlantirish haqida xabar beradi.